



RAUF PARFI HIKOYALARI BADIYYATI (“Sadaqa -raddi balo”, “Yolg‘iz”, “Darz” hikoyalari misolida)

Sindarova Dilbar Sobirjon qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi
fakulteti, 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Rauf Parfi ijodiga oid hikoyalar tahlil qilingan. Rauf Parfining nafaqat shoir balki nosir sifatida ijodini ham tadqiq qilmoq dolzarb mavzulardan biridir. Maqolada imkon darajasida shu masalaga yechim berilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, ramz, ijodkor uslubi, arxitektonika, mavzu turfa xilligi.

Abstract: In this article, the stories related to the work of Rauf Parfi, the leading representative of uzbek literature, are analyzed. Researching the work of Rauf Parfi not only as a poet, but also as a novelist is one of the topical issues. The article provides a solution to this issue as far as possible.

Keywords: story, symbol, writer’s style, architecture, diversity of themes.

Shoirlik kasb emas, hayot aravasini tortmoq va tirikchilik uchun she’r yozilmaydi, umuman olganda, adabiyot bu maqsadga xizmat qilmaydi, uning vazifasi boshqa. Biroq davrimizning ma’lum bir vaqtlarida shunday hodisotlar-da bo‘ldiki, ba’zi “ijodkorlar” adabiyotni o‘z tirikchilik manbayiga aylantirdilar, manfaatlar ijod olamidanda ustun keldi, oxir-oqibat shoir, yozuvchi degan sharafli nom hamma ijodkorlarda ham o‘zini oqlay olmay qoldi. Shukrki, ana shunday vaqtlarda o‘zligiga xiyonat qilmagan, bu qutlug‘ nomni sof vijdoni, pokiza qalbi bilan himoya qilgan adiblar ham topildi. Barcha adabiyot ixlosmandlari bir ovozdan aytishlari mumkinki, bu ijod ahli avvalida Rauf Parfi turadi, chunki Rauf Parfi bir so‘z bilan aytganda o‘ziga, so‘ziga sodiq odam, shoirlar darveshi edi. Shoirning o‘z ta’biriga ko‘ra, “hamshisha” si, (Rauf Parfi o‘z suhbatdosh do‘stlarini shunday atar ekanlar) shogirdi Mirpo‘lat Mirzo: “Rauf Parfi-davrimizning yagona daho shoiri,“-deganlarida naqadar haq edi. Chunki o‘zbek she’riyati bog‘iga qancha bog‘bon-shoirlar kelib ketmadi, ularning har biri-da bu bog‘ga o‘z nihollarini qadashga urinib ko‘rdilar, ammo ularning hammasi ham ko‘rkam daraxtga aylanib, hosil bera olgani yo‘q, Rauf Parfi azim chinorining esa umri uzoq, uning naqshin-nigorli, otashin, millat ruhini uyg‘otguvchi she’riyati abadiy tirik.

Ko‘pchilik Rauf Parfini shoir sifatida taniydi, ammo shoir nasrda ham muvaffaqiyatli qalam tebratgan, adib hikoya, maqola va boshqa nasriy asarlari





”Hukmnoma “ to‘plamidan o‘rin olgan. Shoir nasriy asarlarining salmog‘i u qadar ko‘p emas, to‘plamga “Davlat bobo “, ”Sadaqa-raddi balo “, ”Yolg‘iz “, ”Xatna “, ”Darz “ kabi hikoyalar kiritilgan. Rauf Parfi hikoyalarini o‘qir ekanmiz ularda mavzu xilma-xilligi, noodatiy yondashuv, ramzlar silsilasi, ijodkor uslubi kabi masalalarni ko‘rish mumkin.

Adib “Sadaqa-raddi balo” hikoyasida qariya va bir o‘tkinchi inson munosabatlari orqali juda go‘zal hukm bera oladi. Yo‘lda kelayotgan nuroniy bir chol yonidan o‘tib ketayotgan bir yigitni to‘xtatib, undan sadaqa qilishini so‘rab, sadaqa-raddi balo deya nasihat qiladi. Keyin yigit u cholni ko‘p bora masjid yonida uchratadi, lekin chol bu safar hech bir insondan sadaqa so‘ramaydi, yigit esa u cholning yoniga borib, so‘ramagan taqdirda ham cholga sadaqa bermochi bo‘ladi, chol esa uni qat‘iy rad etib, ranjib ketib qoladi, chunki yigit cholning nasihatini to‘g‘ri anglamagan edi. Hikoyada sadaqa-savob, ezgu amallar, yaxshilik ramzi bo‘lib, yoshini yashab, hayot haqiqatlarini chuqur anglay boshlagan qariya tomonidan nasihat ramziy ma‘nosida foydalanilgan. Nuroniy chol bu harakatlari orqali hayot o‘tkinchiligiga, yaxshi amallar esa insonni yomonliklardan asrovchi kuch, raddi balo ekanligiga ishora qiladi.

Adibning keyingi ”Yolg‘iz “ hikoyasi esa sarlavhadanoq ta‘kidlab turilgan yolg‘izlik, inson qadri, uning eng jimjima his-tuyg‘ulari haqida. Yolg‘izlik inson uchun eng og‘ir sinovlardan biri deyish mumkin, buni his qilish uchun, bizningcha, Daniel Defo qalamiga mansub ”Robinson Kruzoning sarguzashtlari “ asarini yodga olish kifoya, kimsasiz orolda yillab yolg‘iz o‘zi qolib ketgan inson qismati aks etgan bu asar yolg‘izlik haqida to‘laqonli hissiyot bera oladi. Ayni hikoyada esa o‘g‘li G‘oyibjon harbiy xizmatga ketganidan so‘ng kelini ham ota-onasinikiga ketib qolib, o‘zi yolg‘iz yashayotgan Tojixon ona obrazi haqida hikoya qilinadi. Tojixon ona esa kelinining bu harakatlaridan ham xafa bo‘lmasdan o‘zini uy-yumushlariga ovuntirib, farzandining harbiy xizmat muddati tugashini intizorlik bilan kuta boshlaydi, biroq o‘g‘lining o‘z ehtiyotsizligi natijasida halok bo‘lganligi haqida onaga mash‘um telegramma keladi. Bu orada kelini Munisxon o‘g‘il ko‘radi, otasidan yodgorlik bo‘lib qolgan bu bolaga ota ismi G‘oyibjon qo‘yiladi, nevarasi Tojixon opaning yagona quvonchi, hayotda yashashga bo‘lgan birdan-bir umidiga aylanadi, biroq taqdir bechora ona boshiga yana sinov beradi, kelini Munisxon Xoldor ismli yigitga ikkinchi bor turmushga chiqib ketib, farzandining ismini ham Tohirga o‘zgartiradi. Ayniqsa, bu holat bechora onaning qalbiga tig‘dek botadi, u farzand dog‘ida dard chekib,





yolg'izlikda yashay boshlaydi, adib hikoyada farzand burchi, oila qadri, kelin vazifasi, ona mehri kabi mavzularni ifodalaydi.

Rauf Parfining yana bir chuqur mushohadaga chorlovchi hikoyasi "Darz" hisoblanadi. Ushbu hikoyada kun bo'yi uyda o'zi yolg'iz qolgan kelin Ozoda haqida so'z boradi, u zerikishning oldini olish uchun turli uy-yumushlari bilan o'zini chalg'itishga harakat qiladi, so'ng "Oila va baxt" degan kitobni ham noxushgina varaqlab chiqadi, biroq baribir hech birining foydasi bo'lmaydi. Shunda xayoliga ishlash fikri kelib qolib, turmush o'rtog'i kelsa, bu haqda aytmoqchi bo'ladi. "Ertadan ish boshlayman..." yozuvchi "kelsa aytaman, o'yladi u. Ozoda eri haqida o'ylaganda" yozuvchi "deb o'ylaydi. Og'zaki hech bunday demaydi, Turg'un aka deydi, oppog'im deydi. Turg'un qop-qora yigit. Otelloga o'xshaydi. Ozodani Dezdemonadan ham yaxshi ko'radi. Haq gap! "Shu voqeadanoq hikoya mohiyati anglashiladi, asarning sarlavhasiga izoh beriladi. Yangi oiladagi oilaviy munosabatlarga asta-sekinlik bilan darz ketayotganligiga ishora berib ketiladi, agar yangi kelin ish boshlasa ochiqdan-ochiq turmush o'rtog'ining rashkchiligi sabab urush-janjallar kelib chiqishiga sabablar ko'rsatiladi. Shekspirning "Otello" dramasi xabardor kitobxon bu fikrlarni tezda ilg'ab oladi. Hikoya orqali adib insonlarning bir-biriga e'tiborsizliklari munosabatlarning darz ketishiga asosiy sabablardan biri ekanligini izohlaydi.

Rauf Parfi hikoyalari bilan tanishar ekanmiz, ularning mavzu ko'lami o'zgacha ekanligiga guvoh bo'lamiz, shuningdek adib istiora, ramzlardan hikoyalarda yetarli darajada foydalanadi, hikoyalarining hech birining g'oyasi ochiqdan-ochiq aytilmaydi, balki ramzlar vositasida bayon etiladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Rauf Parfi nafaqat she'riyatda, balki nasrda ham mahoratli ijodkor hisoblandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rauf Parfi .Hukmnoma.-Toshkent., " Akademnashr ".2023
2. Nazar Eshonqul. Mendan „men "gacha.-T., "Akademnashr ".2014
3. "Yoshlik "jurnali,2009-yil,4-son.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/rauf-parfi-sherlar>.

